

## ISTE'MOL BOZORI


(2020-yil yanvar\*)

Chakana savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan 9,3 % ga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,4% ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,6 % ni tashkil etdi.


### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

2020-yil yanvar




## Jami chakana tovar aylanmasi tarkibi

	2019-yil qiymati (mlrd. so‘m)	Ulushi (%)	2020-yil qiymati (mlrd. so‘m)	Ulushi (%)	O‘shish sur‘ati (%)
<b>Jami chakana tovar aylanmasi</b>	<b>411,5</b>	<b>100,0</b>	<b>504,4</b>	<b>100,0</b>	<b>116,9</b>
<b>Yirik korxonalar</b>	<b>34,5</b>	<b>8,4</b>	<b>57,5</b>	<b>13,6</b>	<b>162,5</b>
<b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik</b>	<b>377,0</b>	<b>91,6</b>	<b>446,9</b>	<b>86,4</b>	<b>112,0</b>



## 2020-yil yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)


(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda)



Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmida 2019-yil yanvar oyiga nisbatan sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Qayd etish joizki, Jizzax shahri (131,2 mlrd. so'm), Zomin (82,1 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (76,0 mlrd. so'm), va Baxmal 53,8 mlrd. so'm) tumanlari viloyat chakana savdo aylanmasi o'sishiga katta hissa qo'shgan hududlar hisoblanadi.

## 2020-yil yanvar oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasida 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi.

Xususan, nisbatan yuqoriroq o'sish sur'atlari Baxmal (33,8 %), Sharof Rashidov (18,0 %), Paxtakor (9,6 %) va Zafarobod (6,1%) tumanlarida kuzatildi.


O'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lmagan hududlar G'allaorol (6,1 %) va Zafarobod (2,1 %), Yangiobod (4,5%), Zomin (4,4 %) tumanlari hisoblanadi.

## Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri (26,0 %), Zomin (16,3 %), Sharof Rashidov (15,1 %), Zomin (16,3 %) hamda Baxmal (10,7 %) tumanlari o'z ko'rsatkichlari bilan chakana savdo hajmi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (ming so'mda)



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 7,0 % ga oshib, 368,9 ming so'mni tashkil etdi. (2019 yil yanvar oyida 307,4 ming so'mni tashkil qilgan edi.) O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatgichlari Jizzax shahri (745.7 ming so'm), Zomin (507,2 ming so'm) Sharof Rashidov (349,9 ming so'm) va Baxmal tumanlarida (348,8 ming so'm) kuzatildi.


## Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm)



Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar oyida 2019-yilning shu davriga nisbatan 9,2 % ga oshdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi umumiy hajmida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan hududlar Jizzax shahri (4728,0 mln so'm), Sharof Rashidov (1633,9 mln so'm) hamda Forish (1005,3 mln so'm) tumanlari hisoblanadi.


## Umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi 2019-yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Forish (9,5 %) tumanida kuzatildi. Shuningdek, Jizzax shahri (9,2 %), Zafarobod (9,3) Mirzacho'l (9,4 %) tumanlarida sezilarli o'sish sur'atlariga erishilgan.



## Jami chakana savdo aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi



Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 88,6 % ini tashkil qildi.

Viloyatdagi kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 309,4 mlrd so'mini norasmiy sektor, 63,4 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.

Jami norasmiy sektorning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,3 % ni tashkil etdi.

### **ULGURJI TOVAR AYLANMASI**


2020-yilning yanvar oyida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 134,8 mlrd. so'mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga oshdi.

#### **2020 yil yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi**

	<b>Ulgurji savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'mda</b>	<b>O'sish sur'ati, %da</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>134,8</b>	<b>97,4</b>
<i>shahar:</i>		
<b>Jizzax sh.</b>	<b>39,5</b>	<b>93,9</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Arnasoy</b>	<b>3,3</b>	<b>196,9</b>
<b>Baxmal</b>	<b>8,6</b>	<b>41,4</b>
<b>G'allaorol</b>	<b>4,3</b>	<b>101,0</b>
<b>Sharof Rashidov</b>	<b>25,6</b>	<b>103,1</b>
<b>Do'stlik</b>	<b>6,9</b>	<b>98,0</b>
<b>Zomin</b>	<b>17,3</b>	<b>100,9</b>
<b>Zarbdor</b>	<b>10,1</b>	<b>175,4</b>
<b>Zafarobod</b>	<b>3,0</b>	<b>160,4</b>
<b>Mirzacho'l</b>	<b>2,7</b>	<b>269,1</b>
<b>Paxtakor</b>	<b>3,1</b>	<b>178,7</b>
<b>Forish</b>	<b>4,8</b>	<b>102,0</b>
<b>Yangiobod</b>	<b>5,6</b>	<b>101,9</b>

Hududlar miqyosida olib qaralganda, ulgurji tovar aylanmasida Mirzacho'l (269,1 %), Arnasoy (196,9 %) va Paxtakor (178,7 %) tumanlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 2019-yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etib, 107,1 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,5 % ni tashkil qildi.

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi boshlig'i  
Murodulla Ibragimov  
tel: (0371) 230-83-45*